

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

PIRMATOVA FARANGIZ MA'RUFJONOVNA

**MAMLAKAT MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH
ISTIQBOLLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit,

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025 yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract for doctor of philosophy (PhD) in
Economics**

Pirmatova Farangiz Ma’rufjonovna

Mamlakat moliyaviy barqarorligini ta’minlashda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish istiqbollari.....3

Пирматова Фарангиз Маъруфжоновна

Перспективы привлечения прямых иностранных инвестиций для обеспечения финансовой стабильности страны29

Pirmatova Farangiz Marufjonovna

Prospects for attracting foreign direct investment to ensure the country's financial stability 55

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....60

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

PIRMATOVA FARANGIZ MA'RUFJONOVNA

**MAMLAKAT MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH
ISTIQBOLLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit,

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025 yil

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2024.3PhD/Iqt4462 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tiu.uz) va «ZiyoNet» ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Bakieva Iroda Abdushukurovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor


Rasmiy opponentlar: Raxmonov Dilshodjon Alidjonovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xusainov Shavkat Abdushukurovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: G.V.Plexanov nomidagi Rossiya Iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali

Dissertatsiya himoyasi Tashkent International University huzuridagi DSc.22/29.12.2023.I.175.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «01» 02 kuni soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Dissertatsiya bilan Tashkent Tashkent International University ning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (43 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «14» 01 kuni tarqatildi.
(2024 yil «7» 12 dagi 43 raqamli restr bayonnomasi).



N.X. Jumayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.T. Absalamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

D.A. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan global raqobatning kuchayishi, moliyaviy-iqtisodiy cheklovlar rejimining kengayishi, qo‘shilgan qiymat zanjiri va xalqaro transport-logistika tizimidagi uzilishlar sharoitida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilishga qaratilgan investitsion siyosatni amalga oshirish, investitsion muhitning jozibadorligini oshirish va iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini ta‘minlashning zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra¹, “1991-2022 yillarda iqtisodiyotda investitsiya normasi ko‘rsatkichi o‘rta daromadga ega bo‘lgan mamlakatlarda 29,4 foizni, O‘zbekistonda 23,9 foizni, Qozog‘istonda 25,4 foizni, Turkiyada 25,6 foizni, Malayziya 28,3 foizni, Singapurda 29,3 foizni, Koreyada 33,1 foizni, Hindistonda 32,3 foizni, Xitoyda 41,4 foizni tashkil etgan”. Rivojlanayotgan mamlakatlarda yuqori investitsion faollikka erishish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kengaytirish barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash, xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali iqtisodiyotni modernizatsiyalash va xalqaro mehnat taqsimotiga integratsiyalashuvni rivojlantirish, tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.

Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish, ularni istiqbolli sohalarga yo‘naltirish va samaradorlikni oshirish masalalariga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Buning sababi, so‘nggi o‘n yillikda jahon iqtisodiyotidagi nobarqarorlik va turli tahdidlarning davom etishi, shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘shish sur‘atlarining sekinlashuvi xorijiy investitsiyalar oqimining kamayishiga olib kelganidir. Ushbu sharoitlar tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligini yanada yaqqol namoyon etadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash orqali uning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida xorijiy investitsiyalarni, ayniqsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhim vazifa sifatida belgilangan. Biroq, 2016 yilda mamlakatimizda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya miqdori rivojlanayotgan mamlakatlardagi yuqori iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlaridan ancha past, ya‘ni 4,5 barobar, shuningdek, MDH mamlakatlari o‘rtacha ko‘rsatkichidan 3 barobar kam bo‘lgan. Shu sababli, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, tashqi moliyalashtirish siyosatini takomillashtirish hamda jalb qilingan investitsiyalardan samarali foydalanish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Dissertatsiya ishi muayyan darajada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli, 2016 yil 26 oktabrdagi «Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-4853-sonli, 2016 yil 5 oktabrdagi «Tadbirkorlik

¹ Jahon banki ma‘lumotlari (<https://worldbank.org/opendata>) asosida hisoblangan.

faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-4848-sonli, 2012 yil 10 apreldagi «To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi PF-4434-sonli Farmonlari va boshqa ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xorijiy investitsiyalarni ishlab chiqarishga jalb etish va ulardan samarali foydalanish muammolari xorijlik iqtisodchilar L.Alfaro, N.Bayraktar, Ye.Gribova, K.Guadalupe, P.Jadxav, X.Degregorio, D.Danning, Yu.Zaysev, D.Kim, K.Kojima, R.Lipsey, R.Narula, T.Ozava, Ye.Popov, S.Saksonova, L.Sanjaya, S.Xaymer, F.Xiolan, K.Xed, Y.Xuang va boshqa olimlar tadqiqotlarida o'z aksini topgan².

Shuningdek, bu boradagi mavjud muammolarning o'ziga xos ilmiy va amaliy jihatlari respublikamizning bir qancha iqtisodchi-olimlari, jumladan, A.Bekmuradov., B.Berkinov, A.Vaxobov, Sh.I. Mustafakulov, A.Isadjanov, N.Karimov, N.Kuzieva, B.Valiyev, N.Maxmudov, J.Muinov, U.Nadirxonov, N.Nedelkina, D.Rustamova, T.Sapaev, A.Sobirov, A.Sodiqov, B.Tagayev, F.Umarov, X.Xalilov, I.Xanova, N.Oblomurodov, N.Xaydarov, N.Xakimov, J.Xoltaev, N.Xashimova, S.Chepel, Sh.Yuldashev va boshqalar³ tomonidan tadqiq etilgan.

²Alfaro L. "Gains from Foreign Direct Investment: Macro and Micro Approaches." World Bank Economic Review (2016): 1–14.; Bayraktar N. Foreign Direct Investment and Investment Climate // Procedia Economics and Finance. 2013. Vol. 5. P. 83–92.; Грибова Е.В. «Инвестиционный климат в России: приток и отток иностранного капитала»// Экономический анализ: теория и практика, №12(315), 2013. С.27-37.; С. Guadalupe, J.Rivera, G.Castro Foreign direct investment in Mexico Determinants and its effect on income inequality// Contaduría y Administración. 2013. Vol. 58. № 4. P. 201–222.; P. Jadhav Determinants of foreign direct investment in BRICS economies: Analysis of economic, institutional and political factor // Procedia – Social and Behavioral Sciences. 2012. Vol. 37. P. 5-14.; De Gregorio J. «The role of foreign direct investment and natural resources in economic development». 2003. Working Paper No 196. Central Bank of Chile, Santiago.; Dunning, J.H. The Eclectic (OLI) Paradigm of International production: Past, Present and Future, International Journal of the Economics of Business, 8(2), 2001, pp. 173-190; Зайцев Ю.К. «Диагностика притока прямых иностранных инвестиций в Россию: от теории к практике» // Экономический анализ: теория и практика, №19(418), 2015. С.16-25.; Kim, D. D. and J. Seo 'Does FDI Inflow Crowd out Domestic Investment in Korea?'// Journal of Economic Studies, 2003. 30 (6): 605-22.; Kojima K. The flying gees model of Asian economic development: Origin, theoretical extensions, and regional policy implication// Journal of Asian Economics, 11(4): 375-401.; ва бошқалар.

³Бекмурадов А.Ш. Глобальные тренды на мировых финансовых рынках и проблемы привлечения технологических инвестиций для реализации промышленной политики Узбекистана// Молия ва банк иши электрон илмий журнали. №2, январь, 2016 й.; Беркинов Б.Б. Тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар самарадорлиги// Иқтисодий ва инновацион технологиялар. №5, 2015 й.; Вахобов А.В., Г.Х.Разиқова, Ш.Х.Хаджибакиев Иностранные инвестиции и модернизация национальной экономики. Т.: «Молия» 2011 г. -124 с.; Мустафакулов Ш.И. Ўзбекистонда инвестицион муҳит жозибадорлигини оширишнинг илмий-услубий масалалари -2017 Исаджанов А.А. Ўзбекистан: потенциал инвестиционного сотрудничества// Иностранные инвестиции в Республике Узбекистан. №1, 2008 й.; Обломуратов Н.Н. Тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг назарий асослари ва устувор йўналишлари йўналишлари 2008. Каримов Н.Ф. Иқтисодий интеграллашув шароитида инвестиция фаолиятини молиялаштиришнинг бозор механизмларини жорий этиш масалалари. – Т.: Fan va texnologiya, 2007. -214 б.; Валиев Б. Миллий

Mavjud tadqiqotlarda xorijiy investitsiyalar samaradorligi bo'yicha umumiy nazariy va metodologik natijalar olingan bo'lsada, ularda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligini baholash nazariyalari va usullari, iqtisodiy tarmoq va hududlar kesimi bo'yicha xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish masalalarining hozirgi holati makroiqtisodiy nuqtai nazardan kompleks yoritilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga asosan «Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish istiqbollari bo'yicha ilmiy-uslubiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tasnifi, tarkibiy tuzilishi, ularni jalb qilish shakllari, usullari hamda iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashdagi ahamiyatiga oid bazaviy konseptual yondashuvlar va nazariy qarashlarni tadqiq qilish;

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotga ta'siri va ularning samaradorligini oshiruvchi omillarni aniqlash;

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotga ta'sirini baholash usullari bo'yicha yondashuv ishlab chiqish;

milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalar jalb qilish tendensiyalarini tahlil qilish;

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar samaradorligini ekonometrik modellashtirish;

mamlakatimizga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol va samarali o'zlashtirishning asosiy shartlari, iqtisodiyotimizning barqaror rivojlantirishida xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida mamlakatimizga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti milliy iqtisodiyotda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish bilan bog'liq moliyaviy-iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tahlil va sintez, korrelyatsiya va regressiya, qiyoslash va guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mamlakatimizda xorijiy investorlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri

иқтисодиётнинг барқарор ривожланишини таъминлашда тўғридан-тўғри хорижий инвестициялардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш Б.-2017 Махмудов Н. М. Инвестиции – ресурсный двигатель экономики// Иностранные инвестиции в Республике Узбекистан. – Ташкент, № 2, 2008 й.; Муинов Ж, Федяшева Г. Прогнозирование инвестиционных процессов и механизмы дальнейшего улучшения инвестиционного климата // Отчет о научно-исследовательской работы за 2015-2017 гг., ИПМИ, 2017 г.

investitsiyalar ishtirokida elektr energiya va gaz tarmog'ini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida byudjeti mablag'lari hisobidan ularga 5 foiz stavkada uch yil muddatga kredit mablag'larini ajratish taklif etilgan;

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning samaradorligini baholashda investitsiya multiplikatori, kapital qaytimi, kapital sig'imi, ICOR koeffisienti kabi sifat ko'rsatkichlarini aniqlash usullari takomillashtirish asosida xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish bo'yicha nisbiy ustunliklari va ustuvor yo'nalishlari belgilangan;

investitsiya dasturlarining sifatini oshirish va xorijiy investitsiyalarni boshqarish jarayonida davlat organlari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari takomillashtirilgan;

mintaqalarning o'ziga xos xususiyatlari va nisbiy ustunliklarini tahlil qilish asosida, hududlarning ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida xorijiy investitsiyalarni istiqbolli tarmoqlarga oqilona yo'naltirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Hududlarda investitsiya jozibadorligini oshirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash hamda yoshlar bandligini ta'minlash orqali hududlarning iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini toifalash orqali yirik investitsiya loyihasi bo'yicha takliflarni baholash mezonlari ishlab chiqilgan;

mamlakatimizda xorijiy investorlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarning tashqi muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini qurish ishlarini amalga oshirish orqali korxonalarda qo'shimcha qiymat zanjiri yaratilishini rag'batlantirish va aholi bandligini ta'minlashga erishiladi.

investitsiya faoliyatini tartibga solish sohasidagi davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirish, investorlar bilan doimiy ikki tomonlama aloqani ta'minlash, hududlar va mahalliy yuridik shaxslarga investitsiyalarni jalb qilishda ko'maklashish, investitsiya takliflari ishlab chiqilgan;

Model natijalaridan ko'rishimiz mumkinki, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining oshishi ichki iqtisodiyotning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining bir foizga oshishi uch choraklik kechikish bilan mamlakatimizda yalpi ishlab chiqarishni 0,18 foizga oshirishi empiric modellar natijasida aniqlangan;

respublikaning tegishli hududlarida tashkil etilgan erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida amalga oshirilayotgan investitsion loyihalar ko'laming samaradorligini aniqlash mexanizmi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot davomida foydalanilgan usullarning xalqaro moliya institutlari tomonidan tavsiya etilganligi, investitsiya siyosatiga oid statistik ma'lumotlarning rasmiy manbalari, xususan O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi va ularning rasmiy veb-sahifalaridan olinlanligi, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning sohaga oid bo'lgan normativ-huquqiy va idoraviy hujjatlarda aks etganligi ushbu dissertatsiya tadqiqotlari natijalarining amaliyotda joriy etilganligi borasida O'zbekiston

Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan berilgan ma'lumotlarga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflar hududlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsiyalar jozibadorligini oshirish hamda ushbu yo'nalishda olib boriladigan kelgusidagi ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ilmiy izlanishlar davomida ishlab chiqilgan taklif-tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi hududlarida investitsiya faoliyatini rivojlantirish hamda davlat maqsadli dasturlari va qarorlarini ishlab chiqishda, hamda dissertatsiya materiallaridan oliy o'quv yurtlarida "Moliya", "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish", "Davlat investitsiya siyosati", "Hududlar iqtisodiyoti" va "Investitsion tahlil" fanlari bo'yicha uslubiy qo'llanma, darsliklarni ishlab chiqishda metodologik asos sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mamlakat moliyaviy barqarorligini ta'minlashda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish istiqbollari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mamlakatimizda xorijiy investorlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ishtirokida elektr energiya va gaz tarmog'ini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida byudjeti mablag'lari hisobidan ularga 5 foiz stavkada uch yil muddatga kredit mablag'larini ajratishga doir taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy va mahalliy investorlarning investitsiya loyihalari tashqi infratuzilmasini yaratish xarajatlarini davlat tomonidan qoplab berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2022 yil 7-iyuldagi 306-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasining Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo'mitasining 2024 yil 25 oktabrdagi 04/7-10-121-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakatimizda xorijiy investorlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarning tashqi muhandislik-kommunikasiya tizimlarini qurish ishlarini amalga oshirish orqali korxonalarda qo'shimcha qiymat zanjiri yaratilishini rag'batlantirish va aholi bandligini ta'minlashga erishiladi.

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning samaradorligini baholashda kapital qaytimi, investitsiya mul'tiplikator, ICOR koeffisienti va kapital sig'imi kabi sifat ko'rsatkichlarini aniqlash usullari takomillashtirish asosida xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish bo'yicha nisbiy ustunliklari va ustuvor yo'nalishlari belgilashga doir taklifi (O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasining sanoat, qurilish va savdo masalalari qo'mitasining 2024 yil 25 oktyabrdagi 04/7-10-121-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar samaradorligini belgilovchi ko'rsatkichlarni yaxshilash, xususan, iqtisodiy o'sishning qo'shimcha xorijiy kapital xarajatini ifodalovchi ICOR koeffisientini mavjud 0,6 dan oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

investitsiya dasturlarining sifatini oshirish va xorijiy investitsiyalarni boshqarish jarayonida davlat organlari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari takomillashtirishga doir taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

“Xorijiy va mahalliy investorlarning investitsiya loyihalari tashqi infratuzilmasini yaratish xarajatlarini davlat tomonidan qoplab berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2022-yil 7-iyuldagi 306-son qarorini ishlab chiqishda foydalanildi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasining sanoat, qurilish va savdo masalalari qo‘mitasining 2024 yil 25 oktabrdagi 04/7-10-121-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida investitsiya faoliyatini tartibga solish sohasidagi davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirish, investorlar bilan doimiy ikki tomonlama aloqani ta‘minlash, hududlar va mahalliy yuridik shaxslarga investitsiyalarni jalb qilishda ko‘maklashish, investitsiya takliflari ishlab chiqilishini tashkil etish, hamda tegishli hududdagi chet el investitsiyalari ishtirokidagi investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida va samarali amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash, ularni hal etish bo‘yicha tezkor choralar ko‘rishga olib keldi.

mintaqalarning o‘ziga xos xususiyatlari va nisbiy ustunliklarini tahlil qilish asosida, hududlarning ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida xorijiy investitsiyalarni istiqbolli tarmoqlarga oqilona yo‘naltirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishga doir taklifi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasining sanoat, qurilish va savdo masalalari qo‘mitasining 2024 yil 25 oktabrdagi 04/7-10-121-son ma‘lumotnomasi). Natijada, mamlakatimizda ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsadida xorijiy investitsiyalarni istiqbolli tarmoqlarga oqilona yo‘naltirish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan 4 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 128 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekt va predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va joriy etilishi, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning. **“Iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalari amaliyoti, uning kelib chiqishi, yutuq va kamchiliklari yuzasidan olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari, mamlakatimizda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning olib borishning huquqiy asoslari hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalari

bo'yicha xorij tajribasi va undan O'zbekiston iqtisodiyotida foydalanish yo'llari tadqiq etilgan va ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyalashuvning kuchayishi natijasida mamlakatlar o'rtasida xalqaro kapital harakati tezlashib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, kapital ko'chishining asosiy shakli bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha ko'plab iqtisodchi olimlarning turli iqtisodiy nazariyalar doirasida o'zlarining yondashuv va qarashlarini ilgari surishlariga turtki bo'lgan. XX asrning 60 yillarida R.Vernon o'zining xalqaro tovar ishlab chiqarish sikli nazariyasida TTXI va xalqaro savdo o'rtasidagi munosabat, tovarning hayotiy sikli kabi muammolarga e'tiborni qaratadi. Muallif xalqaro savdo va xorijiy investitsiyalashning o'zaro ta'siri dinamikasini tadqiq qiladi. Kanadalik iqtisodchi S.Xaymer esa transmilliy kompaniyalar va sust raqobat nazariyasida transmilliy kompaniyalar (TMK) raqobatdoshligi va ularning xalqaro faoliyatini tahlil qilgan.⁴

Xorijiy investorlar uchun chet elga ishlab chiqarish investitsiyalarini kiritish ichki bozorda ishlab chiqarishni tashkil etishdan ko'ra ko'proq xatarlar va xarajatlarni keltirib chiqaradi.

Investitsiya instrumenti nuqtayi nazardan, to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kapitali bu to'g'ridan-to'g'ri investorning korxonaga (bevosita yoki bilvosita) yo'naltirgan yoki ushbu korxonadan qabul qilgan kapitali hisoblanadi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kapitali operatsiyalari 3 ta asosiy komponentdan iborat: xususiy kapital (equity capital), reinvestitsiya daromadlari (reinvested earnings) va boshqa to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kapitali (other direct capital).

Xorijiy investitsiyalarning mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish va modernizatsiyalashdagi rolini tahlil qilish, investitsiyalarni faol jalb qilish bo'yicha takliflar A.Isadjanov ilmiy tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan⁵. Bizning fikrimizcha, yuqoridagi yondashuvlar asosida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga umumiy ravishda va keng qamrovli qilib, "bu muayyan mamlakat iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi birlikning xorijiy boshqa bir mamlakatda ro'yxatdan o'tgan mulkchilik shaklining u yoki bu turiga mansub korxonaga yoki ishlab chiqaruvchi tashkilot faoliyatiga ishlab chiqarishni yangidan tashkil etish yoki kengaytirish uchun uning nizom jamg'armasining 10% miqdoridan kam bo'lmagan va foyda olish maqsadida yo'naltirilgan moddiy yoki nomoddiy mablag'lardir" deb ta'rif berish maqsadga muvofiqdir.

Xususiy kapital (aksionerlik kapitali) – filiallardagi kapital, sho'ba va assotsiatsiyalashgan korxonalaridagi (oddiy yoki ikkilamchi aksiyalar sotilishi foydasida qatnashmaydigan) imtiyozli aksiyalar, ya'ni qarzdorlik qimmatli qog'ozlaridan tashqari barcha aksiyalar, boshqa kapital qo'yilmalar (mashina, asbob-uskuna ta'minoti kabilar);

Reinvestitsiya daromadlari: to'g'ridan-to'g'ri investorning sho'ba korxonalari, assotsiatsiyalashgan korxonalar tomonidan dividend sifatida taqsimlanmagan daromad ulushi va filiallarning to'g'ridan-to'g'ri investorga

⁴ Hymer, S. H. (1960): "The International Operations of National Firms: A Study of Direct Foreign Investment". PhD Dissertation. Published posthumously. The MIT Press, 1976. Cambridge, Mass.

⁵ Isadjanov A.A. Uzbekistan - restructuring economy and foreign investment // Журнал «Marco Polo magazine». Italy, Venezia 2000. № 3

to'lanmagan foydalari. Agar filiallarda bunday foydalar aniqlanmagan bo'lsa, filial daromadlari taqsimlangan hisoblanadi;

Boshqa to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kapitali (kompaniyalararo qarzdorlik operatsiyalari): to'g'ridan-to'g'ri investor va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyali korxonalar yoki bitta to'g'ridan-to'g'ri investorga bog'langan ikki to'g'ridan-to'g'ri investitsiyali korxonalar o'rtasida qarzdorlik qimmatli qog'ozlari va savdo kreditlari kabilarni qamrab oluvchi qarzlarni olish va berish ta'minoti. Sho'ba xarakteriga ega depozit institutlari o'rtasidagi depozit va qarzlarni to'g'ridan-to'g'ri investitsiya emas balki boshqa investitsiya sifatida tasniflanadi.

Investitsiyalar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganish bo'yicha fikrlar bir qancha mahalliy iqtisodchi olimlarimiz asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Masalan, iqtisodchi N.N.Oblomuradov TTXning iqtisodiyotga ta'sirini mahalliy jamg'armalarning investitsiya faoliyatiga yo'naltirilishi, mehnat va kapital samaradorligini oshiradigan boshqaruv, marketing va ilg'or texnologiyalar orqali tushuntiradi.

A.M.Sodiqov o'z ilmiy asarida mamlakatimiz mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda tabiiy-iqtisodiy, ishlab chiqarish, ijtimoiy-demografik salohiyatiga bog'liq bo'lgan ularning investitsion faolligining rolini alohida asoslab bergan. Sh.X.Nazarov ham iqtisodiy o'sishni ta'minlashda investitsiyalarning rolini izohlab, mintaqalarning raqobat ustunliklarini aniqlab beruvchi ichki manbalardan biri sifatida investitsion faollik darajasini keltiradi.

Yuqorida keltirilgan xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlari natijalarini umumlashtirib shunday xulosa qilish mumkinki, chet el investitsiyalarini jalb qilishga ko'r-ko'rona keng imtiyoz va afzalliklar berilishining o'zi ulardan kutilayotgan iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlab bera olmaydi.

Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy samarasiga erishish uchun esa mamlakat iqtisodiyotida muayyan shart-sharoitlarni ta'minlash va maxsus investitsiya islohotlarini amalga oshirish talab qilinadi.

Shuning uchun, mamlakatimiz iqtisodiyotiga o'zlashtirilayotgan xorijiy investitsiyalarni nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan ham tahlil qilish, ularning iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash va shu asosda chet el investitsiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirishning o'ziga xos talablarini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi **“Mamlakatimizga xorijiy investitsiyalar jalb qilish tendensiyasi va ulardan foydalanish samaradorligi”** deb nomlangan bo'lib, bunda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar normasi, tarkibi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqligi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning holati va rivojlanish tendensiyalar tahlil qilingan. Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar samaradorligini ekonometrik modellashirish amalga oshirilgan.

O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va

ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish ustuvor yo‘nalish qilib belgilandi.

Milliy iqtisodiyotning yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, jumladan, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish shuningdek, investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish eng muhim vazifalar qatoridan o‘rin egallagan⁶.

Harakatlar strategiyasi doirasida mineral-xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash bo‘yicha umumiy qiymati qariyb 40 milliard AQSh dollariga teng bo‘lgan 649 ta investitsiya loyihalarini amalga oshirishni ko‘zda tutuvchi tarmoq dasturlarini o‘z vaqtida amalga oshirishi ko‘zda tutilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan “kelgusi besh yilda 70 milliard AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirilishini nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturi”⁷ qabul qilinishi belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ushbu investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari taqsimlab berilgan.

Qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida qulay ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratish muhim ahamiyatga ega. Yangi ishlab chiqarishlarni o‘zlashtirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari korxonalarini texnik va texnologik qayta jihozlash va modernizatsiyalash barcha turdagi moliyalashtirish manbalari - ham ichki, ham tashqi manbalar hisobidan uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilishni taqozo etadi. Bugungi kunda tashqi investitsiyalar masalalarida asosiy urg‘u kapitalning barqaror uzoq muddatli manbasi sifatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilishga berilmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatlar tomonidan investitsiyalar uchun qulay muhitning yaratilishi ularni yanada samarali jalb qilishga ko‘maklashadi. Xususan, investitsiyalarni rag‘batlantirishda investitsiya imkoniyatlari marketingi sezilarli natijalarni bermoqda. Jumladan, investitsiya imkoniyatlari marketingi uchun yo‘naltirilgan har 1 AQSh dollari miqdoridagi mablag‘lar deyarli 4 dollar investitsiyalarni jalb qilishga yordam bermoqda. Bunda iqtisodiyotning muayyan sektorlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan investitsiyaviy taqdimotlar eng muvaffaqiyatli hisoblanib, ular kompaniyalar darajasida

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/3107036>.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida”gi Qarori.

tadqiqotlar va maxsus taqdimotlar bilan birga olib borilganda kutilgan natija beradi.

1-jadval

2022-2026 yillarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari⁸

№							
	qo'yilmalar						
	mablag'lari						
	O'zbekiston Respublikasi jamg'armasi mablag'lari so'm)						
	O'zbekiston Respublikasi so'm)						
	mablag'lari						
	mablag'lari						
	To'g'ridan-to'g'ri xori-jiy so'm)						
	mablag'lari						

Shuningdek, davlat organlarining rasmiy vakillari va xorijiy kompaniyalar o'rtasida shaxsiy aloqalar investorlar o'rtasida mamlakatning ijobiy imidjini shakllantirishda ko'proq samara berishi kuzatiladi⁹.

Tajribaning ko'rsatishicha, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida muhim masalalardan biri investorlarga davlat xizmatlarini ko'rsatishning samarali mexanizmini tashkil qilish bo'lib qolmoqda. Turli ruxsatnomalar olish va davlat idoralari bilan kelishuvlarga erishish uchun yetarlicha ko'p vaqt va moliyaviy xarajatlar kerak bo'ladi. Ayrim mamlakatlar investitsiyalarga ko'maklashish bo'yicha institutlar ishini "yagona darcha" tamoyili asosida tashkil qiladi va turli xizmatlarni, jumladan biznesni davlat ro'yxatidan o'tkazish, litsenziya va ruxsatnomalar olish, turli xil kelishuv tartib-taomillaridan o'tish va boshqa xizmatlarini qamrab oladi.

2-jadval

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda PQ-72-son "O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi Qarori.

⁹ Moran T. Foreign Direct Investment and Development: The new policy agenda for developing countries and economies in transition. - Washington, DC. Institute for International Economics, 1998.

O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo‘yicha loyihalarning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi choralari¹⁰

	Ma‘muriy preferensiyalar
solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan bazani	
to‘lovi bo‘yicha soliq solinadigan bazani	
solig‘idan ozod qilish	bo‘nak to‘lash imkoni
to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlarning qo‘llanilishi	O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan

Qisqa davr davomida O‘zbekiston avtomobil tarmog‘ini rivojlantirishda sezilarli natijalarga erishdi. Mazkur holda davlat siyosatining avtomobil industriyasini barpo etishdagi muvaffaqiyati tayyor mahsulot ishlab chiqarish va uni eksport qilishga investitsiyalar kiritishni rag‘batlantirish, turdosh va qo‘shimcha tarmoqlarni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishning turli vositalaridan samarali foydalanishi bilan izohlanadi. Xususan, butlovchi buyumlar, materiallar va texnologik uskunalar ishlab chiqaruvchi korxonalar “Uz Avto Motors” AJda ishlab chiqarilgan avtomobillar uchun realizatsiya qilinadigan mahsulot qismida qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘idan, shuningdek, ularni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan asosiy vositalar bo‘yicha mol-mulk solig‘ini to‘lashdan ozod qilingan. Bundan tashqari, avtomobil ishlab chiqaruvchi mahsulotlarni MDH mamlakatlari bozorlariga realizatsiya qilishi hisobiga “masshtab hisobiga tejash” effektidan manfaat ko‘rishga erishildi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlari Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi va O‘zbekiston-2030 strategiyalarida o‘z aksini topgan. Ularda mamlakatni o‘rta muddatli istiqbolda yanada isloh qilish, tarkibiy o‘zgartirish va modernizatsiya qilish dasturlarini izchil amalga oshirishni davom ettirish, iqtisodiy o‘shishning barqaror va yuqori sur‘atlarini saqlab qolishni va makroiqtisodiy muvozanatni, aholi hayot darajasi va sifati oshishini ta‘minlashga kafolatlari aks etgan.

Xorijiy investorlarni jalb qilish va ularning faoliyatini rag‘batlantirish uchun fiskal instrumentlar keng qo‘llaniladi. Bu omilning ahamiyati, ayniqsa, so‘nggi yillarda turli mamlakatlar o‘rtasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun raqobat kuchaygani sababli katta ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda ko‘plab davlatlar, iqtisodiyotga investitsiya kiritishni rag‘batlantirish maqsadida, xorijiy investorlarga alohida imtiyozlar va rag‘batlar tizimini ishga solmoqda.

3-jadval

Xorijiy investorlarni qo‘llab-quvvatlashning alohida fiskal vositalarining qiyosiy afzalliklari va kamchiliklari¹¹

Qulay va oddiy ma‘murlash	Yuqori daromadli (foydali) korxonalar uchun

¹⁰ Tadqiqot davomida normativ-huquqiy hujjatlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

¹¹ Tadqiqot davomida normativ-huquqiy hujjatlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

	qulay
Soliq ta'tillari	
Qulay va oddiy ma'murlash	larni nisbatan qisqa muddatli loyihalarga jalb qilishga ko'maklashadi
Soliq organlari bilan o'zaro ta'sirlashuv vaqtini	Yangi tuzilgan va amaldagi korxonalar o'rtasidagi raqobat nomutanosibliklari
lar, faoliyatga nisbatan maqsadli qo'llash	Qo'shimcha ma'muriy xarajatlar
Asosiy vositalardan ularni ekspluatatsiya qilish muddatlariga qaramay bir xil foydalanish	Qaytim muddati yetarlicha "uzun" bo'lgan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, korxonalarining o'z mablag'lari va aholi mablag'lari investitsiyalarni moliyalashtirishning asosiy manbaiga aylangan. Ularning ulushi 1996-2000 yillardagi o'rtacha 41,9 foizdan 2016 yilda yalpi investitsiyalarning 52,8 foiziga yetgan. So'nggi 20 yil mobaynida dinamika tahlil qilinganda, korxonalar o'z mablag'lari va aholi mablag'larining investitsiyalarni moliyalashtirishning ulushi YaIMga nisbatan 10,9 foizdan 13,2 foizga ko'tarilgan.

4-jadval

O'zbekiston iqtisodiyotida asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari, YaIMga nisbatan foizda¹²

								3.5-4	4-4.5
To'g'ridan-to'g'ri								4-5	5-6
								4-5	5
								3-4	4-5
								25-28	27-30
mablag'lari								24-25	26-27
			-	-	-	-	-	2-3	3-4
mablag'lari								4-5	5-6
jamg'armasi	-	-						1.5-2	2-2.5
mablag'lari								5.5-6	6-5.5
mablag'lari								3.5-4	4-4.5
mablag'lari								4-4.5	5-5.5
								8-9	8-10

Investitsiyalarni moliyalashtirishning ichki manbalar ulushining o'sishi ijobiy holat hisoblanadi. Shu bilan birga 2021-2022 yillar mobaynida asosiy kapitalga investitsiyalar YaIMga nisbatan 32,4 foizga yetgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-2024 yillarga kelib 10 foizni tashkil etdi.

5-jadval

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar sotishdan tushgan sof tushumining tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi (foizda)¹³

					6-2020	21	2022		
					22,9	12,5	11,5	30	32
					9,5	7,6	7,2	20	18
					12,0	14,9	10,9	10	9
					0,5	0,1	0,8	7	8
					5,5	2,4	3,3	5	6
					9,8	3,8	7,9	12	12
					12,4	26,0	28,7	8	7
					27,3	32,7	29,7	8	8

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sotishdan tushgan sof tushumining tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi notekis bo'lib, tahlil etilayotgan davrda katta o'zgarishlar ro'y bergan. Jumladan, mashinasozlik va metallga ishlov berish tarmog'i korxonalarining sotishdan tushgan sof tushumlari 1996-2000 yillar oralig'ida o'rtacha 30,9 foizni tashkil etgan holda, 2022 yilga kelib bu ko'rsatkich 11,5 foizga tushib qolgan. Aksincha, savdo va umumiy ovqatlanish tarmog'ida sotishdan tushgan sof tushumlarida o'sish tendensiyasi kuzatilib 2022 yilda 28,7 foizni tashkil etib, 2023-2024 yillarda esa 8-7 foizni tashkil etadi.

So'nggi yillarda respublika iqtisodiyotida tashqi savdo va xorijiy kapitalning ishtiroki bilan ishlab chiqarish ko'rsatkichlari barqaror o'sish tendensiyasini kuzatish mumkin. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining eksporti 1996-2000 yillarda respublika eksporti umumiy hajmidan o'rtacha 9,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2001-2005 yillarda bu ko'rsatkich 14,9 foizga ko'tarildi va 2022 yilda 20,2 foizga yetib bordi. Bu raqamlar xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining ishlab chiqarish va eksport faoliyatining kengayganini, shuningdek, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarning eksport hajmining ortib borganini ko'rsatadi. Ularning o'sish sur'atlari boshqa xo'jalik subyektlari eksport faoliyatiga nisbatan ancha yuqori ko'rsatkichlarga ega.

6-jadval

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ishlab chiqarish va tashqi savdo faoliyati ko'rsatkichlari dinamikasi¹⁴

Ko'rsatkichlar	-2020	2021	2022		
	17,9	19,7	20,2	30-35	35-40
	27,8	24,9	26,0	28-32	40
	-2360,6	-3083,2	-4117,4	-5-6	-6-7

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

ohirgi yillar mlrd AQSh dollarida									
--------------------------------------	--	--	--	--	--	--	--	--	--

Shu bilan birga, ushbu korxonalarining import hajmi eksportga nisbatan ancha yuqori ekanligini qayd etish o‘rinli. Xususan, 2022 yil statistikasiga ko‘ra xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining salbiy tashqi savdo saldosini -4117,4 million AQSh dollarini tashkil etganligi shu bilan birga 2023-2024yillar yakuniga ko‘ra bu -6-7 mlrd AQSh dollari ko‘rsatkichni tashkil etgani salbiy baholanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar samaradorligini baholashda ekonometrik modellashtirishning ahamiyati katta. Bu usul iqtisodiyotning turli sektorlari, jumladan, sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalariga investitsiyalarning ta‘sirini aniq va ishonchli o‘lchash imkonini beradi. Ekonometrik modellar yordamida ishlab chiqarish hajmi, bandlik darajasi, eksport salohiyati va texnologik yangiliklarning joriy etilishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning qanday ta‘sir ko‘rsatayotganini o‘rganish mumkin. Bu natijalar asosida siyosat ishlab chiqaruvchilar investitsiyalar oqimini yanada ko‘paytirish va ularning ijobiy ta‘sirini kuchaytirishga yo‘naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqishlari mumkin.

Shuningdek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotga ta‘sirini makro va mikro darajada farq qilishi mumkinligi sababli, har bir holatga moslashgan individual modellarni ishlab chiqish zarur. Masalan, ba‘zi davlatlarda investitsiyalar yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali ijtimoiy muammolarni hal qilishga yordam berayotgan bo‘lsa, boshqa davlatlarda ular texnologik innovatsiyalarni rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Ekonometrik modellar bu farqlarni aniqlash, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni tahlil qilish va kelajakda optimal qarorlarni qabul qilish uchun asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilishda ko‘plab ko‘rsatkichlar, jumladan, Yalpi ichki mahsulot, aholi daromadlari, valyuta kursi, inflyatsiya darajasi, eksport va boshqa shu kabi iqtisodiy ko‘rsatkichlar tanlab olinishi taklif etilib, ushbu omillarning ta‘siri yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirilgan.


Bizning fikrimizcha, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi o‘zgarishining ($LnInvest_t$), ichki iqtisodiyotga ta‘siri hamda ichki iqtisodiyotning to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmining o‘zgarishiga ta‘sirini ikki tomonlama samaradorligini aniqlashda yalpi ishlab chiqarish o‘zgarishi ($LnGDP_t$), mamlakat exportni hajmining o‘zgarishi ($LnExport_t$), hamda milliy valyuta almashinuv kursi o‘zgarishi ($LnExR_t$) tanlab olingan.

Yuqoridagi tanlangan ko‘rsatkichlardan quyidagi gepotezalarni shakllantirganmiz:

to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmining oshishi mamlakat ichki iqtisodiyotida yalpi ishlab chiqarishni va eksport hajmini oshirishga xizmat qilishi kerak;

to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmining oshishi ichki iqtisodiyotda xorijiy valyutalar kelishini ko‘paytirishga va bu milliy valyuta almashinuv kursini oshirishi lozim.

Yuqoridagi gepotezamizni empirik tahlillar asosida tekshirib ko‘ramiz. Bunda, tanlangan ko‘rsatkichlar choraklik ko‘rsatkichlar bo‘lib, 2005q1-2024q2 davr oralig‘ini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ko‘rsatkichlarning ta‘sirini aniqlashtirish uchun tanlangan statistik ma‘lumotlar natural logorifmlangan.



1-rasm. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarga ta‘sir etuvchi omillarning korrelyatsiya matrisasi

Tanlangan ko‘rsatkichlarning o‘zaro korrelyatsiyasi ham ilmiy tadqiqotlarimizda o‘rganilgan bo‘lib, bunga ko‘ra, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning mamlakatimizdagi YaIM bilan korrelyatsiyasi 0,52 ga teng bo‘lishi xorijiy investitsiyalarning ichki iqtisodiyotga ta‘siri pozitiv va kuchli ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning mamlakatimiz ekporti hajmi o‘zgarishi bilan korrelyatsiyasi 0,36 ga teng bo‘lgan bo‘lishi xorijiy investitsiyalar ta‘sirida ekportimizning oshishi asosli ekanligi ammo bu yetarlicha kuchli emasligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning milliy valyutamizning xorijiy valyutaga nisbatan almashinuv kursi o‘zgarishi bilan korrelyatsiyasi -0,11 ga teng bo‘lishi, yuqoridag oldimizga qo‘yilgan gepotezaning o‘g‘riligidan dalolat beradi.

Ushbu ilmiy tadqiqotimizda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar samaradorligini tahlil qilishda ikki xil modeldan foydalanganmiz. Xususan, Least Squares with Breaks hamda structural vector autoregression medel kabi modellardan foydalanilgan.

Least Squares with Breaks modeli to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar samaradorligini baholashda muhim afzalliklarga ega. Ushbu model investitsiyalarning iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta‘sirida yuzaga keladigan strukturaviy o‘zgarishlarni aniqlash imkoniyatini beradi. to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar bilan bog‘liq jarayonlar vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turishi, masalan, iqtisodiy sharoitlarning keskin o‘zgarishi, yangi texnologiyalarning kiritilishi yoki davlat siyosatidagi o‘zgarishlar sababli samaradorlikning turli davrlarda farqlanishi mumkin. Least Squares with Breaks modeli ana shunday o‘zgarishlarni aniqlab,

har bir davr uchun alohida baholash imkonini beradi, bu esa aniq va ishonchli natijalarga erishishga yordam beradi.

7-jadval.

Least Squares with Breaks modeli asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmining o‘zgarishiga ta’sir etuvchi tanlangan faktorlarning o‘zaro kuchini baholash

Dependent Variable: *LnInvest_t*

Method: Least Squares with Breaks

Sample (adjusted): 2005Q3 2024Q2

Included observations: 76 after adjustments

Break type: Bai-Perron tests of L+1 vs. L sequentially determined breaks

Break: 2009Q1

Selection: Trimming 0.15, Max. breaks 5, Sig. level 0.05

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
2005Q3 - 2008Q4 -- 14 obs				
<i>LnGDP_t</i>	0.592817	1.397257	0.424272	0.6727
<i>LnExport_t</i>	-0.018033	0.127360	-0.141594	0.8878
<i>LnExR_t</i>	-5.717380	1.488820	-3.840209	0.0003
C	-0.000334	0.000391	-0.854776	0.3957
2009Q1 - 2024Q2 -- 62 obs				
